
“XAYR BOG’CHAM, SALOM MAKTAB!”



Ayni paytda maktabgacha ta'lim muassasalarida “Xayr bog’cham, salom maktab!» tadbirlari bo’lib o’tmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri 1 iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni oldidan Bo’ston mahalla fuqarolar yig’ini hududidagi “Ilk qadam” nomli davlat xususiy sherikchilik shaklidagi oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasida ko’tarinki kayfiyatda o’tkazildi.

Tadbirni o’tkazishdan maqsad o’sib kelayotgan yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularni maktabgacha ta'lim muassasalaridan, o’rta maktabga birinchi qadam qo’yib o’qishlari uchun tushunchalarini shakllantirishga qaratilgan.



Tadbirda turli viktorina o’yinlari o’tkazilib, g’oliblar rag’batlantirildi. Bolalar ijrosidagi Vatanni madh etuvchi she'r-qo'shiq va raqslar barchaga birdek quvonch ulashdi.

Qo’shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2021-05-31 21:50:28